Таким образом, цифровые технологии меняют правила игры в экономике, создавая новые возможности для развития бизнеса, улучшения качества жизни людей и роста экономики в целом. Компании, которые будут готовы адаптироваться к новым условиям и использовать цифровые инновации в своей деятельности, смогут выиграть в гонке за будущее и оставаться успешными на рынке. Важно развивать новые стандарты и законы, которые обеспечат безопасность и прозрачность в цифровом мире.

**ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. Сергеев, Л. И. Цифровая экономика: учебник для вузов / Л. И. Сергеев, А. Л. Юданова; под редакцией Л. И. Сергеева. — Москва: Издательство Юрайт, 2020. — 332 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-13619-7.
2. Официальный сайт Государственного комитета Республики Узбекистан <https://my.gov.uz/ru/news/1285>
3. Мохинур А. ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ УЧАСТИЯ СТРАНЫ В МИРОВОМ ХОЗЯЙСТВЕ //Innovations in Technology and Science Education. — 2024. — Т. 3. — №. 18. — С. 154-158.
4. Официальный сайт <https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/20/digitalization/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782665>

## MALAYZIYA IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH YO'LLARI

**Zakirova Sayyora Alimovna**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,  
iqtisodiyot fanlari nomzodi

**Yunusova Maxmuda Almasovna**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi  
elektron pochta: [maxisstat@gmail.com](mailto:maxisstat@gmail.com)

**Annotatsiya:** Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy rivojlanishning noyob misoli bo'lib, butun dunyo bo'ylab tadqiqotchilar va amaliyotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda. Bu mamlakat so'nggi o'n yilliklarda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotidan yuqori texnologiyali sanoat sektoriga o'tib, sezilarli iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Malayziyaning iqtisodiy rivojlanish yo'li tahlili xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga asoslangan muvaffaqiyatli sanoatlashtirish strategiyasini aks ettiradi. Ushbu mavzuni tahlil qilish mamlakatning muvaffaqiyatli iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadigan omillarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi va shunga o'xshash natijalarga erishmoqchi bo'lgan boshqa mamlakatlar uchun o'r ganish mumkin bo'lgan tajribani tushuntiradi.

**Kalit so'zlar:** yalpi ichki mahsulot, yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari, qashshoqlik darajasi, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, yangi iqtisodiy siyosat, xarid qobiliyati pariteti.

**Abstract:** Malaysia represents a unique case of economic development in Southeast Asia, which attracts the attention of researchers and practitioners around

*the world. This country has experienced a significant economic transformation in recent decades, moving from an agricultural economy to a high-tech industrial sector. Analysis of Malaysia's economic development path reflects a successful industrialization strategy based on attracting foreign investment, human capital development and economic diversification. Analysis of this topic will provide a better understanding of the factors that contribute to a country's successful economic growth and identify lessons that can be learned for other countries seeking similar results.*

**Key words:** gross domestic product, growth rate of gross domestic product, poverty level, gross domestic product per capita, new economic policy, purchasing power parity.

So‘nggi yillarda xalqaro munosabatlar rivojlanishida bir nechta yetakchi tendensiyalar yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan, barcha mamlakatlar o‘zining milliyligini anglashi, davlat suverenitetini mustahkamlashga intilishi kuchayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, iqtisodiy globallashuv va mintaqaviylashuv jadal rivojlanmoqda. Hududlararo hamkorlik va raqobat tendensiyasi shakllanib, xalqaro bozor munosabatlari rag‘batlantirilmoqda.


Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan Malayziya davlatida ham ushbu tendensiyalarini kuzatishimiz mumkin.

Malayziya o‘ziga xos mamlakatdir. U ko‘p millatli hamda tinchlik va hamjihatlikda yashaydigan ko‘p madaniyatli jamiyat hisoblanadi. Malayziyada uchta asosiy etnik guruh yashaydi: malaylar (bumiputra deb ham ataladi), xitoylar va hindular. Garchi Malayziya ko‘p irqli mamlakat bo‘lsa-da, barcha xalqlar ahillikda yashaydi, etnik guruhlar o‘rtasidagi ziddiyat kam uchraydi. Barkamol jamiyat va uning xilma-xilligi taraqqiyot va davlat qurilishiga turtki bo‘ldi.

Qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli islohotlar tufayli Malayziya davlati nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda eng rivojlanayotgan davlatlardan biriga aylandi. Xususan, ta’lim tizimi, iqtisodiyot sohasi, xizmat ko‘rsatish sohalari jadal rivojlanmoqda hamda jahon reytingida alohida o‘rin tutmoqda.

Aytish joizki, hech bir davlat boshqa bir davlat uchun ideal iqtisodiy model bo‘la olmaydi, chunki har bir mamlakat o‘ziga xos individual xususiyatlarga ega. Biroq, bir mamlakat tomonidan qo‘llaniladigan ba’zi tamoyillar boshqa mamlakatda uning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish uchun qo‘llanilishi mumkin.

1957- yilning 31- avgustida Malay federatsiyasi Buyuk Britaniyadan mustaqilligini ta’minladi. 1957-1970- yillarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish siyosati eksport bozorini rivojlantirishga qaratilgan edi. Asosiy yondashuv “laissez faire” orqali, ya’ni hukumat aralashuvisz bozor munosabatlariga asoslangan siyosatni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan. Mustaqillikka erishishdan avval Malayziya xalqining yarmidan ko‘pi qashshoqlikda hayot kechirgan. Mamlakatda qashshoqlik darajasi yuqori bo‘lgan, 1970- yilda qashshoqlikning umumiy darajasi 49,3 % ni tashkil etgan [1].




**1-rasm. 1970-2022- yillarda Malayziyada qashshoqlik darajasi, % da1**

Malayziya hukumati iqtisodiy inqirozni bartaraf etish maqsadida rivojlanish tashabbuslarini amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqdi. Ushbu tashabbuslar eng avvalo, barcha fuqarolarga foyda keltirishi va nomutanosiblikni kamaytirishi kerak

1 Department of Statistics Malaysia

edi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, olib borilgan islohotlarning asosiy falsafasi “adolatli o‘sish” tamoyiliga asoslangan. 1971- yilda Malayziyaning uzoq muddatli rivojlanish rejasi asosida Yangi iqtisodiy siyosat (YAIS) ishlab chiqildi. YAISning dastlabki bosqichi 1971-1990- yillarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, unga ko‘ra hukumat sifatli va inklyuziv o‘sishni rag‘batlantirgan holda rivojlanish jarayonlarida mamlakatning hech bir fuqarosini ajratmagan holda iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashi asosiy maqsad hisoblangan [2].


So‘nggi yillarda Malayziyaning real yalpi ichki mahsuloti (YAIM) o‘sish darajasini kuzatish mumkin. 1990-1997- yillarda YAIMning o‘rtacha o‘sish sur’atlari 9,2 % bo‘lib, 1997- yilda Sharqiy Osiyoda sodir bo‘lgan moliyaviy inqiroz sababli esa bu ko‘rsatkich birmuncha sekinlashdi.



**2-rasm. 1990-2022- yillarda Malayziyaning YAIM o‘sish sur’atlari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Jahon banki rasmiy sayti [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

Shuni ta'kidlash joizki, Malayziya kambag‘allikka qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishdi. 1990- yildagi umumiy qashshoqlik darajasi 16,5 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022- yilga kelib bu ko‘rsatkich 6,1 % ga kamaydi. Xuddi shunday tendensiya aholining eng kambag‘al qatlamlariga nisbatan ko‘rsatkichlarda ham kuzatilmoqda.



**3-rasm. 2000-2022- yillarda Malayziyaning aholi jon boshiga YAIM hajmi  
(2017- yilgi XQP bo‘yicha AQSH dollarida)<sup>1</sup>**

Yangi iqtisodiy siyosat olib borilishi natijasida Malayziya o‘rta sinfining paydo bo‘lishi, shuningdek, bumiputra qatlamida savdo va sanoat sohalarida muvaffaqiyatli ishbilarmonlar qatlami paydo bo‘lishiga yordam berdi. Yangi iqtisodiy siyosat mamlakatga juda katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi hamda Malayziyaning iqtisodiy muvaffaqiyatga erishishiga turtki berdi. Bugungi kunda Malayziya iqtisodiyoti burilish chorrahasida turibdi. Hozirda u o‘rta daromad tuzog‘iga tushib qolgan va uning kelajakdagi asosiy yo‘nalishlaridan biri bu yuqori daromadli davlatlar qatoriga kirishdan iboratdir [3].

<sup>1</sup> Jahon banki rasmiy sayti [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

Malayziya yuqori o‘rtalaridagi mamlakat bo‘lib, 2022-yil holatiga ko‘ra aholi jon boshiga YAIM 28 315,4 AQSH dollarini (2017-yilgi xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo‘yicha) tashkil etdi<sup>1</sup>.

Malayziyadagi uy xo‘jaliklarida COVID-19 pandemiyasi sababli milliy kambag‘allik chegarasi daromadlarida qashshoqlik darajasi 2020-yilda 8,4 % ga ko‘tarildi. Xuddi shu davrda, Jini indeksi bo‘yicha o‘lchanadigan daromadlar tengsizligi 2019-yildagi 40,7 % dan 2020-yilda 41,1 % gacha o‘sdi<sup>2</sup>.

Malayziya iqtisodiyotini yanada yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida yangi iqtisodiy modelni ishga tushirdi. Yangi iqtisodiy model xususiy sektorni jlonlantirishga, ishchi kuchi sifatini oshirishga, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yaratishga qaratilib, davlat sektorini iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga ko‘proq moslashtirish uchun yordam beradigan strategik islohotlar tashabbuslarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, hukumat teng imkoniyatlar siyosatini amalga oshirishni siyosiy tashabbuslarni shaffofroq va bozorga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’minlab beradigan ba’zi tuzatishlar kiritish orqali davom ettirmoqda.

Xulosa qilib aytish kerakki, Malayziya hozirda bilim infratuzilmasini barpo etish, o‘sish manbalarini takomillashtirish, shuningdek, davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlash choralarini ko‘rmoqda.

Malayziyaning qashshoqlikka barham berish tajribasi har doim jadal iqtisodiy o‘sish va kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Bu muvaffaqiyatlarga ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va hukumat tomonidan uzlucksiz olib borilayotgan sa’y-harakatlar tufayli erishilmoqda.

---

1 Jahon banki rasmiy sayti [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

2 Jahon banki rasmiy sayti [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *Malaysia success story in poverty eradication // Economic planning unit, 2016-2017;*
2. Э.Ч. Тан, *Общий обзор экономики Малайзии - Научно-дискуссионная часть пленарного заседания;*
3. Л.Ф. Пахомова, *Индустриально-информационное развитие Малайзии - Политическое и экономическое развитие отдельных стран;*
4. *Department of Statistics Malaysia // www.dosm.gov.my;*
5. *Jahon banki ma'lumotlari // www.worldbank.org.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782715>

## O'SMIRLARDA YOLG'IZLIK HISSINING SHAKLLANISHI

**Abdullayeva Risolat Eshonqul qizi**

Termiz davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi III-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Jumayeva Guljahon Oralovna**

Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** O'smirlik davri bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, bu davrda o'smir fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Ayni bu davrda o'smir o'zini yolg'iz his qiladi. O'zini yaxshi his qilayotgan do'stlaridan, oilasidan yoki jamiyatdan uzoqlashgandek sezadi. Maqolada o'smirlik davrida yuzaga keladigan yolg'izlik muammosini kelib chiqish sabablari keng yoritilgan. Yolg'izlik har doim ham salbiy jarayon emas balki uning ijobiy tomonlari ham mavjudligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik davri, o'smir, yolg'izlik, yosh, ijtimoiy holat, jismoniy holat, ta'lim-tarbiya.

O'smirlik davriga o'tish sifat jihatdan yangi shakllanishlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, ular o'z-o'zini anglashning yangi darajasi, "men-Kontseptsiya" ning shakllanishi deb tushuniladi. O'smirlik 11-12 yoshdan, 14-15 yoshgacha bo'lan davrni o'z ichiga oladi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinfdan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas»- ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan

xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakillanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O’smirlilik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarining paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi.

O’smirlarda yolg‘izlik shakllanishining ilk bosqichlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yolg‘izlik kishinig hissiy holatiga ta’sir etuvchi psixogen omillardan biridir. Inson yolg‘izlik sharoitiga tushib qolishi natijasida uning boshqalar bilan munosabatlari uzilib qoladi va kuchli emotsional reaksiyalarni vujudga keltiradi.

Yolgizlik- ob’ektiv mavjud fenomen bo‘lib, u haqida fikr yuritish va o‘rganish o‘ziga xos qadimiy an’analarga ega, ayni paytda ham munozarali muammodir. Uning tabiatи, rivojlanishi va namoyon bo‘lishi haqidagi nazariyalarda hozirga qadar ham qarama-qarshiliklar kuzatiladi.

O’smirlarda yolg‘izlik hissini keltirib chikaruvchi omillar va ularni o‘smirlarning individual psixologik xususiyatlariga ta’siri va ruhiy xolatlarini inobatga olgan xolda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muammosini o‘rganish ushbu ilmiy tadqiqotning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta’kidlash joiz. Mazkur muammo ko‘plab psixolog olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Jumladan, S.G.Korchaginaning tadqiqotlarida yolg‘izlikning turlariga identifikasiya (aynanlashtirish, o‘xshatish, tenglashtirish) mexanizmlarining buzilishi natijasi sifatida qaraladi.

Tadqiqotchiarning ta’kidlashlaricha, o‘smirlilik davrida o‘z-o‘zini anglash yolg‘izlik fenomeni bilan hamohang kechadi. O‘z o‘zini anglash o‘smirlilik davrida o‘zining tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarishlarga o‘z-o‘ziga bo‘lgan qiziqishning natijasi hisoblanadi. O‘smirning jismoniy va ruhiy xolatidagi keskin o‘zgarishlar nizoli va og‘ir kechadi. O‘smir atrofdagilarni oson ideallashtiradi, shuningdek ulardan tez ko‘ngli qoladi, chukur axloqiy, ruhiy hissiyotlar, dunyoqarashlar iskanjasida qoladi. O‘smirning nazarida atrofdagilar uni tushunayotganday tuyuladi, o‘z hayolidagi qahramonining timsoli bilan yashaydi. O‘smir doimo qahramonliklar ko‘rsatishga, o‘z yo‘lida duch kelgan muammolariga qarshi kurashishga harakat kiladi. Shu yo‘l bilan

atrofdagilarga o‘zining katta bo‘lib qolganligi, o‘z mustaqilligi, o‘z shaxsining noyobligini isbot qilishga harakat qiladi va bu jarayonda o‘z-o‘zi bilan suhbat quradi, yolg‘izlik holatini boshidan kechiradi. O‘z o‘y-hayollari bilan tanho qolish o‘smirga real hayotda erishishning imkoni bo‘lmagan turli holatlarii hayolida boshdan kechirish imkoniyatini beradi. "Yolg‘izlik tabiiy holat, u o‘smir ichki hayoti, ichki dunyosining shakllanayotganligidan darak beradi" deb yozadi I.S. Kon.

Oilada ota-onalar tomonidan bolaning tabiatiga mos kelmaydigan xattiharakatlarni bajarishga majbur qilish bolada hissiy qo‘rquv holatiga olib keladi. Ko‘p hollarda ota-onalar farzandlarining qiziqishlarini inobatga olmay boshqa kasbni egallashiga majburlaydi. Bu uchun ular bolaga shart-sharoitlar yaratgan bo‘lsa ham, boshqa tomonidan ular istaklarini amalga oshirishga to‘sinqinlik qilgani uchun nafrat hisining shakillanishiga sabab boliadi. Keyinchalik bu bola tomonidan maqullanagan bilan ongida esa yolg‘izlik, tashlab qo‘yilganlik, uni tushunmaslik hissi qoladi. Lekin ba’zi sabablarga ko‘ra eng to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya ta’sirida ham yolg‘izlik hissi saqlanib qolishi mumkin. Hatto atrofida qarindoshlar, hamkasblar, do‘sstar ko‘p bo‘lsa ham bu his uni ta’qib etaveradi. Buyuk satirik A. Raykin ta’kidlaganidek: “Odamlar ko‘p, ammo gaplashadigan hech kim yuk”.

Hamma vaqt ham yolg‘izlik yomon holat emas. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, insonga o‘zi bilan o‘zi yolg‘iz qolish zarur bo‘ladi. Qachonki yolg‘izlik insonga azob bera boshlaganda esa muammo vujudga keladi. Psixologiyada sensor deprivatsiya (xissiy-axborotga tashnalik) tushunchasi mavjud. Agar inson o‘ziga kerakli miqdorda axborotlarga va taassurotlarga ega bo‘lmasa unda psixologik, psixiatrik va somatik tabiatga ega bo‘lgan muammolar vujudga keladi. Shuning uchun ham inson axborot va muloqotga nisbatan tashnalikni his kiladi.

***ADABIYOTLAR***

1. Xuxlaeva O. V. *Osnovi psixologicheskogo konsultirovaniya i psixologicheskoy kor-rektsii.: uchebnoe posobie dlya studentov vissh. ped. ucheb. Zave-denyi.* / O. V. Xuxlaeva - M.: Akademiya, 2001.-208 s.
2. *Labirinti odinochestva. Sbornik.* / Pod red. Pokrovskogo N.E. M.: EKSMO-Press, 1989. - S. 549
3. Korchagina S. G. *Genezis, vidi i proyavleniya odinochestva: monografiya.* - M.: Moskovskiy psixologo-sosialniy institut, 2005. 196c
4. Kon I.S. *Mnogolikoe odinochestvo.* // *Znanie sila.* 1986. - №12-81-84 s
5. E.G'. G'oziyev "Ontogenet psixologiyasi" Toshkent. Noshir nashriyoti 2010y 186-197b

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782724>

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KORREKSION TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Teshaboyev Akram Yuldashevich

p.f.n.dotsent, Andijon chet tillar instituti kafedra mudiri.

### ANNOTATSIYA:

*Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lismaktablarida korreksion ta'limini tashkil etishning zamonaviy usullarini va ularning natijalarini ko'rib chiqadi. Muqaddimada, korreksion ta'limi talab qilinadigan muammolar haqida umumiy ma'lumotlar taqdim etiladi va maqolaning mihimligiga qaratilgan maqsadlar ko'rsatiladi. Keyinchalik, korreksion ta'limining qanday o'r ganilishi kerakligi va uni maqsad va vazifalari ko'rsatiladi. Usullar bo'limida, korreksion ta'limi tashkil etish uchun foydalaniladigan usullar va jarayonlar ta'riflangan. Natijalar bo'limida, bu usullar va dasturlarning o'quvchilar va o'qituvchilar ustida qanday ta'sir qilishi ko'rsatilgan. So'ngra, munozarada korreksion ta'limini tashkil etish usullari va natijalari ustida muhokama qilindi, jumladan o'quvchilar bilan hamkorlik, o'qituvchilar uchun tayyorlash, individual o'quvchilarning ehtiyojlariga javob berish, so'zlashish va muloqot, mustaqil o'r ganish kabi muhim muzokaralar o'tkazildi. Maqola, korreksion ta'limini tashkil etishning muhimligi va zamonaviy usullari to'g'risida mustahkam va tahlilga oid ma'lumotlar taqdim etadi.*

**Kalit so'zlar:** korreksiya, analiz, ta'kidlash, o'r ganish, tahlil, muhimlik, natijalar, o'quvchi, o'qituvchi, ta'sir, maqsad, mazmun.

### KIRISH.

Korreksion ta'limi, umumiy o'rta ta'lismaktablarida muhim bir e'tiborga sazovor bo'lgan mavzu. Bu, o'quvchilarning bilim va o'zlashtirishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'rta ta'lismaktablarida korreksion ta'limini tashkil

etishning zamonaviy usullari va ularning maqsad va vazifalr tahlili muhimdir. Korreksion ta'limi, o'quvchilarning turli xil qiziqishlari, zarur xizmat ko'rsatishlari va qonunlar bilan ta'minlangan o'qish tajribalarini ta'minlash uchun maqsad qilinadi. Korreksion ta'limining qanday o'rganilishi kerakligi va uni maqsad va vazifalari bilan qanday ta'riflash kerakligi ko'rsatiladi.

Korreksion ta'limi, umumiy o'rta ta'lim mакtablarida o'qituvchilar uchun muhim bir masala hisoblanadi. Bu tushuncha, o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish va ularning o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun juda muhimdir. Zamonaviy usullar bilan korreksion ta'limini tashkil etish quyidagi ususllarni o'z ichiga oladi:

- Individual yondashuv: Har bir o'quvchi o'zining xususiyatlari va zarur talablarga muvofiq ravishda yordam olishi lozim. Bu maqsadga erishish uchun o'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilar bilan xamkorlikda ishlashtirish uchun ko'rsatish uchun individual dasturlar tuzishadi.
- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy texnologiyalar, korreksion ta'limini o'quvchilar uchun yanada qulay va samarali bo'lishida yordam beradi. Virtual darsliklar, interaktiv dasturlar va boshqa texnologiyalar o'quvchilarning ma'lumotlarni oshirish va ularga o'rganishni yanada qulaylashtiradi.
- Hamkorlik: Korreksion ta'limini tashkil etishda o'qituvchilar, murabbiylar, o'quvchilar va ularning oilalari o'rtasida hamkorlik va birgalikning ahamiyati katta. Birgalik tizimi o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.
- Monitoring va baholash: O'quvchilarning rivojlanishini va o'zlashtirishlarini baholash uchun monitoring va baholash tizimini tashkil etish juda muhimdir. Bu usul, o'quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash va ularning o'zlashtirishlarini ta'minlashda yordam beradi.
- O'quvchilarning qiziqishlarini oshirish: O'quvchilarning qiziqtirishlarini oshirish uchun zamonaviy usullar bilan ta'lim berish juda muhimdir. O'quvchilarni motivatsiyalash, ularni qiziqtirish va o'rganishga qiziqishlarini oshirish uchun innovatsion dasturlar va usullar foydalanish muhimdir.

Korreksion ta'limini zamonaviy usullar bilan tashkil etish, o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlash va ularning o'zlashtirishlarini oshirishda juda muhimdir. Bu usullar o'quvchilarning potentsiallarini oshirish va ularni muvaffaqiyatli insonlar sifatida tayyorlashga yordam beradi.

Korreksion ta'limi, o'rta ta'lim muassasalarida talab qilinadigan muhim bir maqsadga ega. Bu, o'quvchilarning qiziqishlarini, zarur xizmat ko'rsatishlarini va qonun bilan ta'minlangan o'qish tajribalarini ta'minlashga qaratilgan. Biroq, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion ta'limini o'rganishning zamonaviy usullari va ko'rsatkichlarini kuzatish maqsadida, bir nechta muammolar o'rta ga chiqmoqda.

**Maqsad:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion ta'limini amalaga oshirish va ta'minlashning zamonaviy usullari va qo'llanishlari quydagi yonalishlarga tayanadi:

a). Korreksion ta'limining o'rganilishi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion ta'limining qanday o'rganilishi, o'quvchilarga qanday yaxshi ta'lim berish uchun muhimdir.

b). Korreksion ta'limining maqsadlari. O'quvchilarning qiziqishlarini va zarur xizmat ko'rsatishlarini ta'minlash, ularni qonun bilan ta'minlash va ularning o'qish tajribalarini oshirish uchun maqsadlar belgilanadi.

Bu maqola, korreksion ta'limining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilishi va ta'minlashning kritik muammolarini yoritadi. Ushbu muammolar korreksion ta'limining muvaffaqiyatli o'rganishini ta'minlash uchun ilg'or usullar va ko'rsatkichlar bilan qo'llanishning zarur bo'lishini ko'rsatadi.

### **Usullar:**

Korreksion ta'limining zamonaviy usullari va qo'llanishlari ta'riflangan. Bu bo'limda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion ta'limini tashkil etish uchun foydalaniladigan usullar va jarayonlar ta'riflangan. Quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchi tanqidiy tahlili: Korreksion ta'limining boshlanishi o'quvchilarning tanqidiy tahlilidan o'tadi. O'quvchilar bilan individual ravishda suhbatlashiladi va

ularning kuchli va qattiq yonlarini aniqlash uchun sinovlar va boshqa ilmiy usullar foydalaniladi.

2. Korreksion ta’limi dasturlari: Korreksion ta’limi dasturlari, o‘quvchilarning har birining zarur ko‘nikmalarini, talablarni va maqsadlarni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Bu dasturlar boshqaruv va o‘quvchilarni qanday o‘rganishlari, yordamchi texnikalar, va o‘quvchilarning maslahatlari uchun yo‘l harakatlarini o‘z ichiga oladi.

3. Texnologiya va interaktiv vositalar: Zamonaviy texnologiyalar, komputer dasturlari va interaktiv darsliklar, korreksion ta’limining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Virtual o‘quv vositalari, interaktiv darsliklar va boshqa komputerli dasturlar o‘quvchilarning o‘zlashtirishini va o‘zini mustahkam qilishini ta’minlaydi.

4. Ko‘chirilgan ta’lim: Korreksion ta’limida ko‘chirilgan ta’lim usullari ham muhimdir. Bu usullar o‘quvchilarning texnik va professional ko‘nikmalarini oshirishda yordam beradi va ularning o‘rganishini oshirishga imkoniyat yaratadi. O‘quvchilarga boshqalar bilan hamkorlik qilish, jamoatchilikni qo‘llash va maslahat berish o‘rganiladi.

Bu usullar va dasturlar korreksion ta’limini samaradorligini oshirishga yordam beradi va o‘quvchilarning eng yaxshi o‘rganishini ta’minlaydi.

### Natijalar:

Korreksion ta’limining zamonaviy usullari va qo‘llanishlarining natijalari ta’riflangan. Ushbu bo‘limda, ko‘rsatilgan korreksion ta’limi usullari va dasturlarining o‘quvchilar va o‘qituvchilar ustida ko‘rsatgan ta’sirini tushuntirish maqsadga qaratilgan. Quyidagi muhim natijalar ko‘rsatilgan:

1. O‘quvchilarning o‘zlashtirilishi: Korreksion ta’limining zamonaviy usullari va qo‘llanishlari natijasida o‘quvchilarning o‘zlashtirilishi va professional rivojlanishi ko‘payadi. O‘quvchilarning texnik va professional ko‘nikmalarini oshirish uchun ko‘pchilik usullari muvaffaqiyatli ishlaydi.

2. Ta'limning samaradorligi: Zamonaviy usullar va dasturlar foydalanish natijasida korreksion ta'limi samaradorligi oshiriladi. O'quvchilarning o'zlashtirilishi va maqsadlarni olishi samarali bo'lib, ularning o'rganish jarayonlari oshiriladi.

3. Interaktivlik va qiziqishlar: Interaktiv darsliklar, virtual o'quv vositalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar foydalanish natijasida o'quvchilar o'rganish jarayonlariga qiziqish tuyuladi. Bu, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganishni ko'proq sevimli qiladi.

4.O'qituvchilarning tayyorgarligi:Zamonaviy korreksion ta'limi usullari o'qituvchilarning tayyorgarligini oshiradi. Ular o'z darslarini qiziqarli va o'quvchilarning maqsadlariga mos ravishda tashkil etishga yordam beradilar.

5.Ko'rsatilgan ta'limning natijalari: Zamonaviy usullar va dasturlar foydalanish natijasida o'quvchilar maqsadlariga erishadi va talab qilinadigan ko'nikmalarini olishadi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va muhokama qilish qobiliyatları oshadi.

Ushbu natijalar korreksion ta'limi usullari va qo'llanishlarining o'quvchilar va o'qituvchilar ustida qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi va bu usullarning samaradorligini ta'kidlaydi.

### Munozara:

Korreksion ta'limini tashkil etishning zamonaviy usullari va ularning natijalari ko'rib chiqilgan. Ushbu bo'limda, korreksion ta'limining zamonaviy usullari va qo'llanishlarining muhimligi va ularning o'quvchilar va o'qituvchilar ustida qanday ta'sir qilishi masalalari munozara qilinadi. Quyidagi muhim nuqtalar ko'rsatiladi:

1. O'quvchilar bilan hamkorlik: Zamonaviy korreksion ta'limi usullari o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik qilishni ta'minlaydi. Bu, ularning o'z fikrlarini bayon qilish va qiziqishlarini oshirishga yordam beradi, shuningdek, o'zlashtirilgan o'rganish jarayonini ta'minlaydi.

2. O'qituvchilar darsga tayyorlanishi: Zamonaviy ta'lim usullari o'qituvchilarni ko'proq tayyorlanishni talab qiladi. Ular o'zlarining darslarini interaktiv qilish, texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilar bilan muloqotlarni mustahkam qilishga intiladi.

3. Individual o‘quvchilarning ehtiyojlariga javob berish: Korreksion ta’limining zamonaviy usullari individual o‘quvchilarning o‘zlarining ehtiyojlariga qarab tayyorlanishini ta’minlaydi. Bu, o‘quvchilarning har birining o‘zlashtirilishiga mos ravishda ta’lim berish imkoniyatini beradi.

4. So‘zlashish va muloqot: Interaktiv darsliklar, virtual o‘quv vositalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar foydalanish natijasida o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qilish va muloqot qilish uchun yo‘l ochadi. Bu, o‘quvchilarning ko‘nikmalarini oshirish va ularning o‘zlarining qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

5. Mustaqil o‘rganish: Zamonaviy korreksion ta’limi usullari o‘quvchilarga mustaqil fikrlash va muhokama qilish qobiliyatlari oshirishga intiladi. Bu, ularning o‘zlarining o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Munozarada ko‘rsatilgan nuqtalar korreksion ta’limini tashkil etishning zamonaviy usullari va ularning o‘quvchilar va o‘qituvchilar ustida qanday ta’sir qilishi haqida muhokama qiladi va bu usullarning samaradorligini ta’kidlaydi.

## XULOSA

Ushbu qismda korreksion ta’limini tashkil etishning zamonaviy usullari va ularning natijalari ko‘rib chiqilgan. Muqaddima bo‘limida korreksion ta’limi talab qilinadigan muammolar haqida umumiyligi ma’lumotlar berilgan va korreksion ta’limining maqsadlariga qaratilgan e’tibor qaratilgan. Usullar bo‘limida korreksion ta’limi usullari va dasturlari tavsiflangan, jumladan o‘quvchi tanqidiy tahlili, korreksion ta’limi dasturlari, texnologiya va interaktiv vositalar, va ko‘chirilgan ta’lim. Natijalar bo‘limida bu usullar va dasturlarning o‘quvchilar va o‘qituvchilar ustida qanday ta’sir qilishi ko‘rsatilgan, jumladan o‘quvchilar o‘zlashtirilishi, ta’limning samaradorligi, interaktivlik va qiziqishlar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi, va ko‘rsatilgan ta’limning natijalari. Munozara bo‘limida esa korreksion ta’limini tashkil etish usullari va natijalari ustida muhokama qilindi, jumladan o‘quvchilar bilan hamkorlik, o‘qituvchilar uchun tayyorlash, individual o‘quvchilarning ehtiyojlariga javob berish, so‘zlashish va muloqot, va mustaqil o‘rganish. Barcha bu bo‘limlarda

ko‘rsatilgan muhokamalar korreksion ta’limini samarali va efektiv o‘rganishning asosiy omillarini ta’kidlaydi va zamonaviy ta’lim usullari va dasturlarining o‘quvchilar va o‘qituvchilar ustida o‘zaro foydalanuvchilikni oshirishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. *Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak* Toshkent: O‘zbekiston, 20017.-104 bet.
2. Mirziyoev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlitini birlgilikda barp etamiz.* -Toshkent:O‘zbekiston, 2016.-56 bet.
3. Abdulla Avloniy. *Turkiy Guliston yoxud axloq* -Toshkent:O‘qituvchi, 1994 - 178 b.
4. Abdulla Avlomy. *Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom* -Toshkent: Fan, 1994 - 293b.
5. Abdurauf Fitral. *Muxtasar islom tarixi* -Toshkent: Fan, 1993 - 172 b.
6. Abdullayeva Sh. A. *Pedagogik diagnostika.* -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. *Hadis* («Al-jomi’ as-Sahiyh). 1-jild. Taijimon Z.Ismoilov – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 997, 572 b.
8. Abu Iyso-at-Termiziy. *Sahih Termiziy. Abdug‘ani Abdulloh o‘g‘li taijimasi* -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1993, 118 b.
9. Voyshvillo ye. K., Degtyarev M.G. *Logika* -M.: Vlados, 1998, 528s.  
27.Widdel H. *Fragebogen zur Attribuerung von Erfolg und Misserfolg in der Schule.* Beltz ,2010 - 189 p.
10. Giddens Entoni. *Sotsiologiya* - T., «Sharq», 2002 y.,848b.
- 29.Denyakina L. I. *Pedagogicheskaya diagnostika- dvijuShaya sila pedagogicheskogo kollektiva* -Moskva: Universitet,200,198 s
11. Jo‘rayev R. H. va boshqalar. *Pedagogika fani konsepsiysi.* -Toshkent: O‘qituvchi, 2014.-232 b.
12. Ingenkamp Karlxayns. *Pedagogichen diagnostik.*-Berlin, 1991- 240 p.
13. Jenks C. *The Sjciology of Childhood.* - London, 2005.-196 p.
14. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya.* -Moskva:Logos, 2G02

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782746>

## PERCEPTION AND ITS PATHOLOGIES

**Layla Abdullayeva**

Student of Applied Psychology, TerDU

**Kayumova Gozal Narzullayevna**

Teacher of the Department of Psychology of TerDU

Email: [gkayumova234@gmail.com](mailto:gkayumova234@gmail.com)

**Abstract:** Three articles provide information on the fact that the perception of things and events depends on the individuality of each person.

**Key words:** Perception, events, sensory organs, Person, human, psychology, attention, memory, thinking, imagination, feeling and will.

A person perceives and perceives events in the environment throughout his life. These two concepts are so closely related that it is difficult to understand them separately. We perceive events with the help of our senses, and it is on the basis of these sensations that perception is formed. Intuition reflects some features of things and events in the environment around us, and perception organizes them, shows them in our mind and creates a whole image. Perception is a process of knowing, and it is a complex process compared to intuition. As a person matures, the ability to perceive improves with development.

When a new baby is born, it senses the world, but it cannot perceive it. This process will develop in them later.

The concept of perception is defined differently by different scientists from their point of view. For example, in E. Goziyev's "General Psychology" textbook, "Because

perception is considered a complex and meaningful mental process compared to sensations, all mental states, events, features are properties and the overall content of the human mind, acquired knowledge, experiences, skills are manifested in one period, participate in reflection.

In M.Vahidov's textbook "Psychology" it is mentioned that "perception is the reflection of things and events affecting our sense organs as a whole".

In the textbook "Psychology" by V. Karimova, "Perception is such a form of our knowledge that it provides us with a holistic reflection of the object we need at the same time with its properties and characteristics among many different objects and events in existence." it is said.

Based on the above thoughts, perception is defined as follows: Perception means that the images of events are reflected in a person's mind as a whole, which directly affects the senses.

The perception of things and events depends on the individuality of each person. Because two people may not perceive the same event in the same way. For example, if someone likens a cloud in the sky to different things, for someone else, it may mean nothing but a simple cloud.

Despite the fact that almost all our senses participate in the process of perception, we cannot say that perception consists of a simple sum of our senses. Because in addition to intuition, the experience that a person has gained up to this time is also involved. That is, we know what an object we have seen before and easily perceive it. We have a hard time understanding what we don't see at all.

Attention, memory, thinking, imagination, emotion and will are also involved in the process of perception. In addition, imagination is also important in the process of perception. Z. Ibodullayev stated in the textbook "Medical Psychology" that "reviving, i.e. restoring, previously perceived images in our mind is called "Imagination".

We can say about the participation of the imagination in perception that in the process of perception, a person adds something from himself and expands the content

of the image formed from what he perceives. This process is clearly seen in children. For example: a little girl can imagine her doll as a baby and call it "Alla".

The participation of emotions in perception is reflected in relationships. For example: to a person who is scared in the dark at night, an ordinary duck looks like a person who is lying in wait. And on the contrary, if a person is in a good mood, everything can seem beautiful to him.

The importance of intuition in perception is that every sense organ has the most important place. That is, we can say that we can see a picture while perceiving, see the interlocutor while perceiving his thoughts, hear the interlocutor while perceiving his thoughts, taste while evaluating food, smell while perceiving a perfume, and so on.

Attention is also important in perception, so that only when we pay attention to things and events, we perceive them clearly.

A person perceives based on his previous experience, and this process is related to memory.

We clarify the content of our perception by naming things.

Thinking becomes active when we perceive something that we have not seen before. Thinking is also an important process, and perception is also slow in a mentally retarded person.

**REFERENCES:**

1. Ahrorov V. "Menejment va marketing psixologiyasi" - Samarqand. 2018
2. Karimova V. M "Ijtimoiy psixologiya" - Toshkent. 2012
3. Nishonova Z. T, "Psixologik Xizmat" - Toshkent 2007.
4. Hayitov O. E. 'Boshqaruv psixologiyasi" - Toshkent. Istiqlol nashriyoti.2021.
5. Kayumova, G., & Suyunova, D. (2023). THE ROLE OF PARENTS AND TEACHERS IN THE DISCLOSURE OF A CHILD'S ABILITY. *Models and methods in modern science*, 2(1), 133-135.
6. Abdullayeva, L., & Kayumova, G. Z. N. (2024). BOSHQARUV JARAYONIDA RAHBAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 530-532.
7. Narzullayevna, K. G. Z. (2023). Destruktiv xulq-atvor nazariyalari. *Technical science research in uzbekistan*, 1(5), 65-67.
8. Narzullayevna, K. G. Z., & Qizi, Y. M. H. (2022). NEGATIVIZM DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATI SIFATIDA. *Science and innovation*, 1(B3), 851-853.
9. Narzullayevna, K. G. (2022). Psychological effects of motivation of marriage in young people on family strength. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 301-303.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782785>

## EGOISTIK XULQ-ATVORNING MOTIVATSION ASOSLARI

**Karayeva Yulduz Xushbakovna**

TerDU psixologiya kafedrasи v/b dotsenti,  
psixologiya bo'yicha falsafa doktori PhD,

Email: [karayevayulduz@mail.ru](mailto:karayevayulduz@mail.ru)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda shaxsni o'rganish uning hulq-atvor xususiyatlarining motivatsion asoslarini o'rganish bilan bog'liq masala bo'lib, bugungi kunda zamonaviy psixologiya fanining o'rganish ob'ektiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan psixologik tadqiqotlar oldiga birinchi navbatda hulq atvorning motivatsion asoslari, unga ta'sir etish omillarni har tomonlama o'rganish vazifasini qo'ymoqda. Ushbu maqolada egoizm motivatsion holat sifatida olimlar tomonidan o'rganilgan nazariy qarashlar tahlil etilgan bo'lib va eksperimental jihatdan o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** egoizm, altruism, egotsentrizm, egoistik shaxs, hulq-atvor, shaxsning egoistik yo'nalganligi, o'smirlilik davrida egoizm

## MOTIVATION BASIS OF EGOTIC BEHAVIOR

**Abstract:** Today the study of personality is an issue related to the study of the motivational basis of his behavioral characteristics, and today it is becoming an object of study of modern psychology. From this point of view, psychological researches are faced with the task of comprehensively studying the motivational bases of behavior and the factors influencing it. In this article, the theoretical views of egoism as a motivational state, studied by scientists, are analyzed and studied experimentally.

**Key words:** egoism, altruism, egocentrism, egoistic personality, behavior, egoistic orientation of personality, egoism in adolescence.

**KIRISH:** Egoizm shaxsning motivatsion-mazmuniy asosiy xislatlaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtgacha eng kam o'rganilgan va ta'riflangan xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Jamiyatda shaxs va uning hulq atvorini o'rganish barcha ijtimoiy fanlar qatorida psixologiya fanining ham asosiy masalalaridan hisoblanadi. Shaxsdagi

salbiy deb qaraladigan xususiyatlardan biri -egoizm bo‘lib, bu boshqa odamlar va ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari va manfaatlaridan qat’iy nazar, insonning o‘z shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish istagidir, deya ta’kidlanadi

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Zamonaviy psixologiyada “egoizm” atamasi ko‘p qo‘llanilmaydi, bunga uning mohiyati to‘g‘risida tasavvurlar ko‘p ma’noliligi sabab bo‘lishi mumkin [6:207].

Egoizm- bu insonning faqat o‘z manfaati yoki faqat o‘z foydasi uchun harakatlanishini tavsiiflovchi motivatsion holatidir.

Egoist esa - bu o‘z maqsadlariga erishish uchun boshqa odamlarning his-tuyg‘ulari, manfaatlari va huquqlarini e’tiborsiz qoldiradigan, shuningdek, o‘z xohish-istiklarini amalga oshirish uchun belgilangan qoidalarni buzishga, boshqalardan foydalanishga yoki hatto ularga zarar yetkazishga moyil bo‘lgan kishi. Biroq, egoizm nafaqat shaxsning motivatsiyasi va xarakterida namoyon bo‘ladi, balki u o‘zini hayotiy tamoyil va falsafiy ta’limot sifatida e’lon qiladi. Axloqiy egoizm nazariyasiga ko‘ra, inson o‘ziga nisbatan ustun burchga ega, shuning uchun uchun faqat o‘z manfaatlari muhim [5:105]. U boshqalarni faqat o‘zining “Men”i doirasi bilan cheklaydi, aksincha boshqalar haqida qayg‘uradi va o‘zini butunning bir qismi deb biladi. Boshqacha qilib aytganda, egoizm asosan maqsadga qaratilgan xulq-atvor sohasida uchraydi. Hozirgi kunda psixologiya fanida ikki qarama-qarshi kontseptsiyalar mavjud bo‘lib, biri egoizmning biologik tarafini ta’kidlasa, ikkinchisi esa – shaxs egoizmini shakllanishida ijtimoiy omillar ustuvorligini uqtirib o‘tadi.

Egoizm o‘z nazariyasiga ko‘ra, inson o‘ziga nisbatan ustun burchga ega, shuning uchun unga faqat o‘z manfaatlari muhim [2:14-23]. U boshqalarni faqat o‘zining “men”i doirasi bilan cheklaydi, boshqalar u haqida qayg‘urishlarini hoxlaydi. Boshqacha qilib aytganda, egoizm asosan o‘z ehtiyojlarini yuzaga chiqarishga asoslangan maqsadga qaratilgan xulq-atvor sohasida uchraydi.

**NATIJALAR:** Psixolog K.Muzdibaevning fikricha, egoizmga moyillik shaxsning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, inson yoshi ulg‘aygan sari, egoizmga moyillik darajasi ham pasayib ketadi [1:464]. Hozirgi kunda psixologiyada shaxsning

egoistik hulq ko‘rinishlarini o‘rganish bo‘yicha adabiyotlar yetarli emas, uni eksperimental o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj esa psixodiagnostik metodikalarga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Ye.P.Ilinning “Psixologiya pomoshchi. Altruizm, egoizm, empatiya” nomli kitobida egoizmni o‘rganishga oid bo‘lgan bir necha metodikalar berilgan bo‘lib, ulardan O.F.Potyomkinaning “Shaxsning motivatsion ehtiyojlar sohasidagi ijtimoiy psixologik ustanovkalarni diagnostika qilish” (Altruizm, egoizm shakalalari asosida), “Altruizm – Egoizm” testi, K.Muzdibaevning “Dispozitsion egoizm shkalasi” shular jumlasiga kiradi[4: 576].

### Egoizm va shaxs xususiyatlari orasidagi bog‘lanishlar

(Mann-Uitni mezoni asosida)

	Egoizm	Ekstraversiya	Neyrotizm	Yolg‘on (Ayzenk)	Vijdonlilik	Da‘vogarlik darajasi	O‘z-o‘zini baholash	Qabul-qilish	Hamkorlik	Simbioz	Avtoritar	Kichik omadsiz	Altruizm
Egoizm	1												
Ekstroversiya	- ,141*	1											
Neyrotizm	,127	,132	1										
Yolg‘on (Ayzenk bo‘yicha)	,160*	- ,131	- ,347**	1									
Vijdonlilik	- ,332**	,182**	,124	,065	1								
Da‘vogarlik darajasi	-,014	,099	,045	,098	,122	1							
O‘z-o‘zini baholash	- ,228*	,186**	-,019	,063	,137*	,168*	1						
Qabul qilish	,131	,074	,269**	-,069	-,045	- ,142*	,057	1					
Hamkorlik	- ,134*	-,042	,003	-,014	-,042	,041	-,050	- ,276**	1				
Simbioz	- ,192**	-,013	-,072	,001	-,019	-,023	- ,159*	- ,175**	,378**	1			
Avtoritar	-,108	-,128	-,126	,043	-,090	,106	- ,198**	- ,414**	,436**	,383**	1		
Kichik omadsiz	,160*	,070	,102	,136*	-,127	-,104	,071	,678**	- ,369**	-,102	- ,244**	1	
Altruizm	- ,268**	,238**	,155*	- ,205**	,339**	,058	,265**	,041	,108	,109	,019	- ,090	1

\* -p≤ 0.05 ;      \*\* -p ≤ 0.01

**MUHOKAMA:** Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, ekstrovertlik shunchalik kam bo'ladi, ya'ni introvert insonlar ko'proq egoist bo'lishadi ( $r=-0,141$ ;  $p\leq0,05$ ). Bizga ma'lumki, introvertlarning «Men»i ichkariga o'zlariga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ular ko'proq o'zlarini o'yaydilar.

Egoizm va yolg'onchilik orasida musbat bog'lanish aniqlandi ( $r=0,160$ ;  $p\leq0,05$ ). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, yolg'onchilik ham shunchalik ko'p bo'ladi. Egoist o'smirlar ko'proq yolg'onchi bo'lishadi, ular ko'proq o'zlarining foydalariga, vaziyatdan chiqish uchun himoya mexanizmi sifatida yolg'ondan ko'proq foydalanadilar.

Egoizm va vijdonlilik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,332$ ;  $p\leq0,01$ ). Shaxs qanchalik ko'p vijdonli bo'lsa, unda egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. Vijdonlilik axloqiy kategoriya bo'lib, insonning oliy hislari bilan bog'liq.

Egoizm va o'z-o'zini baholash orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,228$ ;  $p\leq0,05$ ). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, u o'zini shunchalik past baholaydi. O'zini past baholash, odam o'zini boshqalardan ustun emasligini tan olish, boshqalarning manfaatlari uchun o'z manfaatlarini e'tiborsiz qoldirishi, o'zini har tomonlama, sababsiz qurbon qilishidir.

Egoizm va hamkorlik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,134$ ;  $p\leq0,05$ ). Ota-onal farzandi bilan qanchalik ko'p hamkorlikda faoliyat yuritsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. «Kooperatsiya» – ota-onal-bola munosabatlari tizimidagi o'zaro hamkorlikni anglatadi. Bunda ota-onal o'z farzandining hayoti bilan qiziqadi va doim uni qo'llab-quvvatlaydi. Demak, ota-onal farzandining o'qishi, qiziqishlari, do'stlari bilan qiziqib hamkorlikda faoliyat yuritsa, shaxsda shunchalik egoizm kam shakllanar ekan.

Egoizm va simbioz orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,192$ ;  $p\leq0,01$ ). Ota-onal farzandi bilan qanchalik ko'p simbiotik munosabatda bo'lsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. «Simbioz» – mazkur shkalaga tegishli savollar orqali ota-onaning o'z farzandi bilan bir tan-u, bir jon bo'la olishi nazarda tutiladi. Ota-onaning farzandiga

doimo g‘amxo‘rlik qilishi, u haqida doimo qayg‘urishi, farzandda egoistik xulq-atvorning rivojlanmasligiga olib kelar ekan.

Egoizm va «kichik omadsiz» shkalasi orasida musbat bog‘lanish aniqlandi ( $r=0,160$ ;  $p\leq0,05$ ). Ota-onal farzandi bilan qanchalik “kichik omadsiz” munosabatida bo‘lsa, egoizm shunchalik ko‘p bo‘lar ekan. «Kichik omadsiz» – bunda ota-onal o‘z farzandining muvaffaqiyatsizligini qanday qabul qilishi nazarda tutiladi, ya’ni ota-onal o‘z farzandini boricha qabul qiladimi yoki uni doim tanqid qilib qabul qiladimi, shu holat bo‘yicha ota-onaning bolaga emotsional munosabati aniqlanadi.

Egoizm va altruizm orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi ( $r=-0,268$ ;  $p\leq0,01$ ). Shaxsda qanchalik egoizm kuchli bo‘lsa, unda altruizm shunchalik kam bo‘ladi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma’naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo‘lib kelgan. Shaxs psixologiyasini o‘rganar ekanmiz, uning ma’lum bir xususiyatlari va hulq ko‘rinishlarini bevosita kuzatish orqaligina o‘rganib bo‘lmashligiga ishonamiz, chunki bu xususiyatlarda turg‘unlik, barqarorlik va izchillik yo‘q. Shu bilan birga, turli xil ilmiy yo‘nalish vakillari shaxs xususiyatlari tushunchasini turli xil yondoshuvlar asosida tushuntiradilar, biz esa o‘zimizning tadqiqot ishimizda egoizmni turli yosh davrlarda namoyon bo‘lishi, darajalarini tajribalar asosida o‘rgandik va keyingi tadqiqotimizda egoizm yuqori ko‘rsatkichdagi sinaluvchilar bilan psixokorreksion dastur asosida o‘rganishni vazifa qilib belgiladik.

### ***ADABIYOTLAR:***

1. Bojovich L.I. *Lichnost i yeyo formirovanie v detskom vozraste* Moskva: Prosvechenie, 1968. 464 b.
2. Yershova R.V. *Issledovanie organizovannosti v psixologii*. Vestnik RUDN 2007, № 2, 14—23 b.
3. Ilin E.P. *Psixologiya obucheniya i mejlichnostnykh otnosheniy*. Peterburg: Piter, 2014. 576 b.
4. Levit L.Z. *Lichnostno-orientirovannaya kontseptsiya schastya*. Vestnik Odesskogo natsionalnogo universiteta. 2012, № 8, 105—177 b
5. Petrov E.F. *Egoizm: filisofsko-psixologicheskiy ocherk* M.: Nauka, 1969. 207 b

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782898>

## QADIMGI XORAZMDA SHAHARSOZLIKNING PAYDO BO‘LISHI, O‘RGANILISHI VA REKONSTRUKSİYASI

**Madrimov Og‘abek Javlonboy o‘g‘li**

Termiz davlat universiteti tarix  
fakulteti arxeologiya yo‘nalishi talabasi

*Annotatsiya:* Ushbu maqoloada Qadimgi Xorazm diyorida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, hozirgi kunda Xorazmda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar va shaharlarniung rekonstruksiyasi hamda O‘zbekiston va chet el olimlarining izlanishlari va ilmiy xulosalari yoritilgan.

*Kalit so‘zlar:* Tozabog‘yop, Tolstov, Ko‘kcha 3. Amirobod, V. M. Masson, Xvarizam, Avesto, Xazorasp, Katqal’ a.

Qadimgi Xorazm Amudaryoning quyi havzalari ya’ni O‘zbekiston Respublikasi, uning tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda qo‘shni Turkmaniston Respublikasining Toshovuz viloyatini o‘z ichida oladi. Bu zamin qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Bunga sabab Amudaryoning quyi oqimida joylashganligi va o‘z yozuviga ega bo‘lganligi va ko‘plab shahar qal’alarni bunyod etilganligini biz tarixdan yaxshi bilamiz. Xususan, O‘rta Osiyoliklar muqaddas kitobi hisoblangan Avestoda ham tilga olinadi. Shuningdek yunon-rim tarixchilarining asarlarida ham tilga olinadi. Xususan Xorazm nomi turli xil yozma manbalarda uchraydi: Xorazmiya, Xvarazmish, Xvarizam nomlari bilan uchraydi. Endi Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi davlatchilikning O‘rta Osiyoda shakllanishiga to‘g‘ri keladi ya’ni ilk davlatchilik shakllangan davrga to‘g‘ri keladi. Bu davr miloddan avvalgi VII – VI asrlarga to‘g‘ri keladi. Xususan Ahmadali Asqarov ustozimiz akademik o‘zining tadqiqotlaridan ko‘p yillik tajribalardan kelib chiqib Xorazmda

shaharsozlikning boshlanishiga O‘zbekiston janubiy hududlaridan ya’ni qadimgi Baqtriyadan aholi ko‘chishi natijasida Xorazmda shaharsozlik elementlari ko‘zga tashlanadi ya’ni janubning elementlari ko‘p uchraydi. Xususan Baqtriyaning memorchilik, qurilish elementlari yaqqol ko‘zga tashlanadi deb fikr bildiradi va buni 2001-yilda Xorazm tarixiga doir maqola yozib maqolasida batafsil yoritadi. Ustoz akademik Ahmadali Asqarov fikri bir tomonlama to‘g‘ri albatta lekin boshqa olimlarni fikri esa boshqacharoq.

Xususan Xorazm arxeologiyasini o‘rgangan atoqli olim rus olimi Sergey Tolstov esa bu fikrga qo‘silmagan. Ular Ko‘zali qir shahrini sanasi yoshini miloddan avvalgi VII asr deb beradi. Shuningdek Yahyo G‘ulomov ham Xorazmni tarixini arxeologiyasini o‘rgangan va ular ham Xorazm shaharlari yoshini miloddan avvalgi VII asr ham emas deb fikr bildiradi. Qadimgi Xorazm diyori o‘ziga xos qadimgi tarixga ega va o‘ziga xos tomonlari bordir. Masalan, hozirgi kunda butun jahon e’tiborini o‘ziga tortib kelayotgan O‘zbekistonning yirik shaharlari turizm markazlaridan biri bo‘lgan Xiva shahridir. Xiva shahri Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib miloddan avvalgi V asrda paydo bo‘lgan Yoshi 2500 da. 1997 – yil YUNESKO tomonidan 2500 yilligi nishonlandi va Xiva shahriga “Ming gumbazli shahar” nomi berildi va yana shuningdek “Ochiq osmon ustidagi muzey” nomi berildi. Bu nomlar Xorazm davlatchiligi muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi va o‘ziga xos tarixga egadir. Qadimgi Xorazm tarixini o‘ganishda keng yoritib berishda arxeologiyaning xizmati kattadir. Xususan XX asrda O‘rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlar juda keng miqyosda olib borildi. Xususan Xorazmda ham shunday arxeologik tadqiqot ishlari olib borildi. Birinchi bo‘lib Xorazm arxeologiyasini o‘rganishda rus olimi arxeologi etnografi Sergey Pavlovich Tolstovning xizmati kattadir. Tolstov dastlab 1937 – yilda ish boshlaydi vas hu asosda Xorazm arxeologik kompleks ekspeditsiyasini tashkil etadi. Uning ekspeditsiyasi natijasida ko‘plab yodgorliklar aniqlanadi 200 dan ortiqdir. Shular jumlasiga Jombos IV, Ko‘kcha 3,5, Tolstov Makoni Tozabog‘yop madaniyati, Kalta minor madaniyati, Yonbosh qal’a, Amirobod va Suvyorgan madaniyatlarini aniqlaydi. Xususan shuningdek Ko‘zali qir, Xazorasp, Jombosqal’a, Oybo‘yirqal’a,

Qal’ali qir, Tuproqqał'a, Xuznduztepa, Yonboshqał'a, Teshikqał'a, Oqshaxonqał'a va Xiva kabilardir. Xususan Sergey Paxlovich Tolstov Xorazmda, Qoraqalpog‘istonda arxeologik ekspeditsiyalar olib bordi. Shuningdek Qizilqumning bir qismi va Sultan Uvays tog‘ tizmasi bo‘yidagi qadimgi Xorazm yodgorliklarini topib o‘rganadi. 20 yil davomida 1937 – 1956 – yillar davomida u ayniqsa Ko‘zali qir shahrini o‘rganadi va uning mudofa davrlari va ahtining joylashishini o‘rganadi va shahar yoshini miloddan avvalgi VII – VI asrlar deb baho beradi. Shuningdek Sergey Paxlovich Tolstov birinchi bo‘lib O‘rta Osiyoda raqamli arxeologiyadan foydalangan. Buning isboti sifatida XX asrda o‘rgangan Amirobod madaniyatida birinchi bo‘lib yodgorliklarni XX asr 40 – yillarida samalyotda fotosyomka qilgan. Ya’ni fotoapparat bilan rasmga olgan. Bu shuni ko‘rsatadiki Xorazm safarlari ancha aniq o‘rganganligini ko‘rsatadi. Yana shuningdek XX asrda Xorazm arxeologiyasi tarixini o‘rgangan olim Yahyo G‘ulomovdir. Akademik Yahyo G‘ulomov asosan Xorazm shaharlarining qayerdan suv olganini suv olish manbasini o‘rgangan. Uning asari “Qadimgi Xorazmning sug‘orilish tarixi” asaridir. Bu asarni men o‘qiganman. Xorazmning qadimgi davrdan to hozirgacha bo‘lgan sug‘orish inshootlari kanal, daryo va hokazo berilgan. Men maslahat berardim Xorazm tarixiga yoshlarni qiziqishini. Shu kitobni o‘qishni maslahat berardim. Chunki menimcha qanday shahar davlat bo‘lsa ham ular biron bir daryo yoki buloqdan suv ichgan bo‘lishi kerak. Shahar yoki qishloq aholisiga bu albatta zarur va davr taqozoasi bo‘lgan. Yana bir arxeologikdan bittasi Xorazm arxeologiyasi tarixining rivojlanishiga hissa qo‘shgan odam Mambetullayev Mirzamurod tomonidan 1979 – yil Oybo‘yir qal’adan sopol ustiga yozilgan yozuv namunalari topildi. Oybo‘yirqal’adan topilgan yozuv O‘rta Osiyodagi oromiy yozuvidagi eng qadimiy yozuv namunasi hisoblanadi.

Chunki Xorazm ham Baqtriya kabi Ahamoniylar imperiyasi tarkibida bo‘lgan. Xorazmning shuningdek Tuproqqał'a shahar yodgorligi juda muhimdir. Bu shahar podsho saroyi zallar va haykallar topilgan. Bu yodgorlikni Sergey Pavlovich Tolstov o‘rgangan,. Maydoni 100 gettardan ortiqdir 20 dan ortiq loy haykallar topilganligi aytiladi. Shu kabi arxeologik tadqiqot ekspeditsiyalar natijasida va ularning

tadqiqotlari natijasida Xorazm tarixi yanada boyidi va tanildi. Mening fikrim hali o‘rganiladigan narsalar bor shuningdek haqli yodgorliklar to‘liq o‘rganilib bo‘linmagan yodgorliklar ham bor narsalar Katqal’ a yodgorligidir. Bu yodgorlikni o‘rganish hozirgacha ham davom etmoqda va bu tadqiqotlar natijasida Xorazm tarixining deyarli hali bir qismi yoritildi hali ochilmagan qirralari ko‘pdir. Hozirgi kunda Xorazmda arxeologiklar tadqiqotlar davom etmoqda. Xususan Xorazmning qadimiy shaharlari: Katqal’ a, Qalajiqqal’ a, Xumburtepa, Xazorasp va Olma otishgabn qadimiy ko‘hna manzilgohlarida arxeologik dala tadqiqotlari olib biorilmoqda. Hozirgi kunda Xorazmda Mamun akademiyasi ish faoliyat olib bormoqda. Xiva shahrida joylashgan. Hozirda bu yerda arxeolog va yosh tarixchilar o‘z tadqiqotlarini olib bormoqda. Ayniqsa u yerda Xorazm arxeologiyasiga katta hissa qo‘shgan ustozimiz Bahrom Sadullayev ish olib bormoqsda. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktoridir. Ko‘plab yillardan buyon ustoz Katqal’ ada arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib bormoqda va bu tadqiqotlar natijasida Xorazm arxeologiyasi tarixining ko‘p qirrasi yoritib berilmoqda. Hozirgi kunda Xorazm arxeologiyasida yana to‘liq ohib o‘rganilmagan Xazorasp shahridir. So‘ngi tadqiqotlarga ko‘ra uning yoshi miloddan avvalgi VII – VI asrlar deb belgilanmoqda. Demak meni hozirgi kunda Xorazmda arxeologiya sohasi shiddat bn rivojlanib bormoqda. Lekin Xorazmda arxeologik tadqiqotlarda yanada chuqurroq o‘rganish zamonaviy axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish GPS va boshqalardir. Shuningdek meni qiziqtirgan narsa bu Xazorasp qal’asidir. Chunki devorlarining ko‘p qismi saqlanib qolgan va men bu yerda ko‘proq tadqiqot olib borishni so‘rardim olimlarni hali Xazoraspning ochilmagan qirralari ko‘p mening naznimda. Chunki Xazoraspda mening eshitishimcha Avesto zardushtiylikka xos elementlar topilgan deb fikr bildiradilar tadqiqotchilar. Menga shunisi qiziq men shu ishga qo‘l ursammikan deb o‘ylayabman balkim biron-bir yangilik chiqib qolar. Men Xorazmlik olim tadqiqotchilarga ham shu maslahatli ishni taklif qilgan bo‘lardim. Meni shu tomoni qiziqtirdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.P.Tolstov. “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” 1964 – yil
2. Ahmadali Asqarov “O’zbek xalqining kelib chiqish tarixi” 2015 – yil
3. Yahyo G’ulomov “Xorazmning sug‘orilish tarixi” 1959 – yil
4. Vikipediya 2017 - yil
5. Итина. М.А “История из степных племя Хоразмиих экспедится основный итого перепицкий и средований” 1981 - г
- 10.В.А.Лившиц “История Таджикского народа”
11. Ваймберг. Б.И “Шотодукеские племена в древнем Хоразме и археология” 1981 - г
6. С. П. Толстов. "Древние Хорезме" 1948 – г
7. E.V.Rtvladze “O’zbek davlatchiligi tarixi va boshqaruv shakli” 2021 – yil
8. Sh.B. Shaydullayev “O’zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivozlanish bosqichlari” dissertatsiya 2009 – yil
9. Qadimgi Surxon tarixidan lavhalar ilmiy jurnali "Qadimgi sivilizatsiyalar chorraxasida "2018 – yil

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782973>

## HOZIRGI KUNDA MAKTAB O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING AHAMIYATI

B.Qorjovov

Terdu Psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Kasbga yo'naltirish – bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab oquvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi.*

**Kalit so'zlar:** *kasb, yo'nalish, psixologik maslahat, yoshdagi, maktab o'quvchilari, kasbga qiziqtirish, mehnat, qobiliyat.*

### АННОТАЦИЯ

*Профессиональная ориентация научно обоснована и самопрофессиональна. Поскольку потребности общества, педагогов и психологов разные заинтересовать школьников разного возраста и пола профессией, работой развитие способностей, использование внутренних возможностей (самовыражение) – важная задача.*

**Ключевые слова:** *профессия, направление, психологическое консультирование, возраст школьников, пол, интерес к профессии, труду, способность.*

### ANNOTATION

*Vocational orientation is science-based and self-vocational as the needs of the society, teachers and psychologists are different to interest schoolchildren of age and gender in profession, work development of abilities, use of internal capabilities (self-expression) is an important task.*

**Key words:** *profession, direction, psychological counseling, schoolchildren of age, gender, interest in profession, work ability.*

Kasbga yo‘naltirish — bu ilmiy asoslangan va o‘zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o‘zini qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olib, turg‘un kasb tanlash uchun katta hayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixologik-pedagogik tizimdir. Yoshlarning kasb tanlashi asosan, o‘rta mактабдан boshlanadi, shunga ko‘ra, o‘qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi mактаб oquvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o‘zini-o‘zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi.

Bundan tashqari, psixologlar o‘quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari hamda muxum chora-tadbirlar olib borishlari zarur.

O‘smirlar va ilk o‘spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo‘lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb vakillari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda yoki bevosita kasbiy faoliyatlarni kuzatish jarayonlari orqali qat’iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o‘tish o‘rinligi, mактаб o‘quvchilari kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini, ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. Oquvchilarni kasbga yo‘naltirishni yosh bosqichlarida o‘quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishdan asosiy maqsad ularni kasbiy bilimini oshirish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakillantirish Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim ya’ni:

1. O‘z-o‘zini baholay bilish malakalariga o‘rgatish.
2. Intellektual va hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish.
3. Realistik jihatdan o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish.

O‘rta yoshdagi o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish 5-7 sinf (o‘rta yoshdagi) o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish,

layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko‘nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o‘quvchilar uchun hayotdagi o‘z o‘rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o‘z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo‘ladi. Bu yoshdagi o‘quvchilarda ijtimoiy- psixologik layoqatlar, o‘zi ulg‘ayotganligida, yangi bir pozitsiyada, o‘ziga e’tiborida, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak 8-9 sinf o‘quvchilarida kasbga yo‘naltirish. 8-9 sinf o‘quvchilarida kasbga yo‘naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma’naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi, javobgarlik xissini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabul qilish xatti-harakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va axloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatlilagini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilish bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik — ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda o‘qituvchining kasbiy-individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg‘a surganlar. O‘z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta’kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi. Jamiyatdagi bu o‘zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchi yoshlarni umumiyligi o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, ko‘nikma va malakalar asosida shakllantirish, ta’lim oluvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

1. E.G 'oziyev, K.Mamedov. *Kasb psixologiyasi.* —T.: O'zMU, 2003.
2. R.Xudayberdiyev „*Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish*“ „Surxon-nashr“-2023
3. M. 3emapo, M. Semago. *Bolaning aqliy rivojlanishini baholash nazariyasi va amaliyoti. Maktabgacha va boshlang*“ ich maktab yoshi. — Sankt-Peterburg: Nutq, 2010.
4. L.S. Vygotskiy. *Inson taraqqiyoti psixologiyasi.* — M.: Eksmo nashriyoti, 2005.
5. F. N Gonobolin. “*Psixologiya.*”
6. “*Ma'rifat*” nashriyoti. — M., 1973-y.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783007>

## AJAL BATALYONI

**Koraboyev Murodjon**

Oriental universiteti katta o‘qituvchisi

**Soyibjonova Lobar**

Oriental universiteti iqtidorli talabasi

*Annotatsiya: Yarmuk jangi. Milodiy 636-yil, hijriy 15-yil. Buyuk mujohid Ikrima ibn Abu Jahl o‘tmishda qilgan gunohlarini o‘z qoni ila yuvmoqqa ahd qildi. U shahidlikni tanladi. Rum imperiyasiga qarshi kurashda misli ko‘rilmagan jasoratga yana to‘rt yuz kishi qo‘shildi. Xo‘s, bu to‘rt yuz kishi kimlar edi? Nega ular Ikrimaga ergashdilar? Bu savollarni oydinlashtirish uchun biroz orqaroqqa qaytamiz.*

*Kalit so‘zlar: Yarmuk jangi, 636-yil avgust, Rum imperiyasi, Xiraql, Xolid ibn Valid, Mahan, Ikrima ibn Abu Jahl, Xoris ibn Hishom, Ayosh ibn Abu Robi*

Rosululloh sollollohu alayhi vassallam egallahni orzu qilgan Shom yerlari birin-ketin raqiblarini yer tishlatib kelayotgan musulmonlar nishoniga aylandi. Musulmonlar bosib olgan Suriyani qaytarish uchun Vizantiya imператори Gerakliy I (Hiraql) 140 ming Vizantiyadan, 100 ming armanlardan, jami 240 minglik qo‘shin to‘plagani bunga sabab bo‘ldi. Bu raqamlar turli manbalarda turlichcha, masalan, 200 ming, 100 ming... Sababi, har kim o‘z qo‘shini sonini kamaytirib, raqib tomon lashkarini ko‘paytirib aytishi tabiiy hol, albatta. Ammo shunisi aniq-ki, rumliklar musulmon lashkaridan bir necha barobar ko‘p bo‘lgan. Qo‘shin ikkiga bo‘lingan, bir qismiga imператорning ukasi Teodor, bir qismiga esa kuchli qo‘mondonligi bilan nom qozongan. Mahan (ba’zi manbalarda Vahan, ba’zi manbalarda Vaan/Bahan) boshchilik qilishardi. Qo‘shin tish-tirnog‘igacha qurollangan, son jihatdan ustunlik ularga muqarrar g‘alabani va’da

qilardi. O‘ng qanotni tashkil etgan Grigoriyning 30 minglik piyodadan iborat lashkari zanjirdan foydalandi. Bu zanjirlar ularning og‘ishmas jasorati ramzi bo‘lib xizmat qilar va ularning joyidan bir qadam ham ortga jilmaslik uchun o‘lishga tayyorliklarini ko‘rsatib turardi<sup>1</sup>

Milodiy 636-yil avgust oyi. Musulmon qo‘shini dastlab 34 ming, keyinchalik Yamandan kelib qo‘shilgan 6 ming kishilik yordam kuchi bilan jami 40 minglik qo‘shin dushmanga qarshi jang uchun tayyorgarlik ko‘ra boshladilar. Bu muhtasham qo‘shinda buyuk sahabalar, sahoba ayollar ham bor edi, xususan, Abu Sufyon, uning xotini Xind binti Utba, Amr ibn Os, Ikrima ibn Abu Jahl, Zubayr kabilar. Qo‘shinga qo‘mondonlikni esa Abu Ubayda o‘z zimmasiga olgandi. Mashhur sarkarda Xolid ibn Valid qo‘shin qo‘mondoni bo‘lmasa-da, ammo barcha jang taktikalarini, manyovrlarini u ishlab chiqqan. Xatto, jang bo‘lib o‘tadigan Yarmuk daryosi bo‘yidagi tekislikni ham u tanlagan<sup>2</sup>.

Shunday qilib jang boshlandi. Rimliklar mag‘lubiyat haqida hayollariga ham keltirishmayotgandi. Musulmonlar esa o‘zlaridan bir necha barobar ustun dushman dan faqatgina Yaratgangagina suyanib, jasorat bilan olg‘a borishardi. Dastlabki birinchi kun o‘zaro yakkama-yakka janglar, bir-birini sinash uchun yengil sinashma janglardan iborat bo‘ldi. Ikkinci kun Rum qo‘shini markazni chalg‘itib turib o‘ng qanotga, Amr ibn Os tomonga zo‘r berishdi. Ikkinci, uchinchi kunlar shiddati aynan o‘ng qanotga qaratilgandi. Musulmonlar juda ko‘plab talofot ko‘rdilar, shu o‘rinda Rim qo‘shinini ham yaxshigina yo‘qotishlarga ro‘baro qildilar.

Jangning shiddatli 4-kuni ham boshlanish arafasida. Har ikki tomon ham bugun hal qiluvchi kun ekanini yaxshi anglab turibdilar. Musulmon qo‘shinini 3 kundirki hali ham yengilmagani Rum qo‘shinini biroz sarosimaga solardi. Nihoyat jang boshlandi. Mahan bugun ham musulmon frontining o‘ng tarafiga hujum qilishdan boshladi. Xolidning buyrug‘i bilan chap qismdagi ikki korpus o‘z frontidagi rimliklarga qarshi

1 A.I. Akram. Xolid Ibn Al-Valid. Yengilmas qo‘mondon – T”Yangi asr avlod” 2022. 574-bet

2 J. Turboniyning “Islom ummatining 100 buyuk shaxsi” kitobida bu fikr Abu Sufyondan chiqqanligi keltiriladi.

hujumga o‘tgandi1. Dastlab bu yaxshi foyda berdi, ammo uzoq vaqtga emas. Rimliklar kuchli o‘q yomg‘irini yog‘dira boshladilar. Minglab mohir kamonchilar tomonidan otilgan otgan o‘q shu darajada ko‘p edi-ki, xatto ba’zi manbalarda “do‘ldek yo‘g‘ayotgan o‘qlar ortidan Quyosh ko‘rinmay qolgandi”2 deb yoziladi. Musulmonlar juda katta talofot ko‘rdilar. Biror kishi yo‘q edi-ki, yaralanmagan bo‘lsa. Jumladan, 700 janchi bir ko‘zidan ayrıldi. Bular ichida Abu Sufyon ham bor edi. Ikkinchı ko‘zini Yarmuk jangida yo‘qotdi3. Shu tariqa qolgan umrini islomga bag‘ishlagan shaxs butunlay ko‘r bo‘lib qoldi. Musulmonlarning boshiga tushgan bu falokat tufayli ushbu jangning to‘rtinchi kuni tarixga “Yo‘qotilgan ko‘zlar kuni” nomi bilan kirdi4. Ahvol og‘ir, vaziyat jiddiy. Nimadir qilish kerak. Bugun hal qiluvchi kun. Ammo musulmon qo‘sning sezilarli darajada kuchli zarar yetgan, nimadir qila oladigan vaziyatda emas edilar. Shunday vaziyatda maydonga Ikrima ibn Abu Jahl chiqdi. U har qanday inson hayotida bo‘ladigan ikki tanlovdan birini qabul qildi. U din yo‘lida shahid ketishga ahd qildi. Qilichining qinini shartta ikki bo‘lib tashlagan Ikrima o‘z quroldosh birodarlariga shunday xitob qildi: “Xoy musulmonlar! Kim shahid ketishga qasam ichadi?” Uning bu chaqirig‘iga to‘rt yuz kishi “labbay” deb javob berdi. Musulmonlar go‘yo musobaqalashganday birin-ketin Ikrimaga qo‘shilishdi. Xolid amakivachchasini muqarrar o‘limdan qaytarmoqchi bo‘ldi, ammo Ikrima ko‘nmadi. U Xolidga javoban: “O‘z holimga qo‘y meni, ey Xolid! Sen ko‘pdan buyon Rosululloh sollalohu alayhi vassallamning sahabasi bo‘lib kelgansan. Men esa otam bilan birga uning ashaddiy dushmani sanalganman. O‘tmishdagi gunohimni yuvishga imkon ber5. Shunday qilib o‘lishga qasam ichgan bu guruh “Ajal batalyonı” nomini oldi va komandiri Ikrima bn Abu Jahl boshchiligidagi jangchilar shonli tarixda qahramonlar sifatida qolishdi.

Ikrima jangga kirar ekan, qalbida zarracha g‘animdan qo‘rquv hissi yo‘q edi. Uning butun qalbini birodarlariga yordam berish, islomga yordam berib gunohlarini

1 A.I.Akram. Xolid Ibn Al-Valid. Yengilmas qo`mondon. – T.: Yangi asr avlod. 2022. 600-bet

2 Voqidiy: 146-148-b

3 J. at-Turboniy. islam ummatining 100 buyuk shaxsi. – Istanbul. 2020. 231-bet

4 A.I.Akram. Xolid Ibn Al-Valid. Yengilmas qo`mondon. – T.: Yangi asr avlod. 2022. 602-bet

5 “Isharatu alat-toriq” 1-39.

yuvish ilinji qoplab olgandi. Ikrima nafaqat frontning o‘z hududidagi rimliklarni qaytardi, balki uning qanotiga bostirib kirgan rimliklarga yaxshigina zarba ham berdi. 1. Qurshov halqasini yorib tashlash uchun dushman markazi tomon otildi. Rimlik qo‘mondonning buyrug‘iga binoan barcha kamonchilar Ikrima ibn Abu Jahl va uning o‘lim guruhi tomon o‘q yog‘dira boshladilar. Kamon o‘qlaridan jon bergen Ikrimanинг oti yerga yiqildi. Ikrima uning tagidan chiqib yana dushmanga otildi. Juda qattiq yaralangan Ikrima jangdan to‘xtamay, olg‘a boraverdi. Uning bu mardonavor jasoratini ko‘rgan guruhi unga ergashdi. Ikrima to dushman uni boshqa quroq ko‘tara olmaydigan darajaga olib kelgunga qadar jang qildi. Batalyon jangchilarining muqarrar o‘lim tomon otilganidan rimliklar hayratga tushishdi. Oz fursatda Ajal batalyonni rimliklarni ortga tisarilishga va chekinishga majbur qildilar. Shu tariqa batalyonning qahramon jangchilar musulmon qo‘shinini qurshov halqasidan chiqarib yuborishga muvaffaq bo‘ldi<sup>2</sup>.

O‘z vazifasini a’lo darajada bajargan batalyon komandiri Ikrima chalajon holatda yerga yiqildi. Uning tanasi safdoshlari orasida qolib ketdi. Jang tugagach Xolid jonajon amakivachchasi Ikrimani qidirtirdi. Uning tanasi og‘ir yaralangan Xoris ibn Hishom va Ayosh ibn Abu Robinig orasida yotardi. Uchchalasi ham hali tirik, ammo juda og‘ir ahvolda qonga belanib yotardilar. Xoris ibn Hishom suv so‘radi, lekin Ikrimanинг holatini ko‘rib, “Birinchi suvni Ikrimaga beringlar. U mendan ko‘ra muhtojroq” dedi. Ikrima suvni ichmoqchi edi, Ayoshning ahvolini ko‘rib u ham suvdan bosh tortdi. “Ayosh ichmaguncha bir qultum ham suv ichmayman” deb turib oldi. Suvni Ayoshga tutishganda “Suvni birinchi so‘ragan odam ichsin” deya qaytardi. Suvni Xorisga olib borganlar ne ko‘z bilan ko‘rishsinkim, Xorisning joni uzilib bo‘lgan edi. Shoshib suvni Ikrimaga olib o‘tdilar, ammo u ham omonatini topshirgan edi. Oxirgi umid bilan Ayoshga tutdilar, u ham vafot etgandi...

Ajal batalyonidagi ont ichganlarning deyarli hammasi vafot etdi, juda oz qismi og‘ir yaralanib, tirik qolgandi. Vafot etganlar orasida Ikrimanинг o‘g‘li Amr ham bor edi. U ham omonatini Egasiga shu jangda topshirdi.

<sup>1</sup> A.I.Akram. Xolid Ibn Al-Valid. Yengilmas qo‘mondon. – T.: Yangi asr avlod. 2022. 603-bet

<sup>2</sup> J.at-Turboniy. Islom ummatining 100 buyuk shaxsi. – Istanbul. 2020. 227-bet

Jangning beshinchi kuni rimliklar sulh taklif qilib elchi jo‘natishdi. Ammo Xolid ibn Valid bunga rozi bo‘lmadi. U rimiklarning ancha holdan toyganini bildi va endi hujumga o‘tishga buyruq berdi. Musulmonlar safida sog‘ jangchining o‘zi qolmagandi, rimliklar ham kattagina yo‘qotishlar ko‘rgandi. Ikkala taraf ham bazo‘r oyoqda turardi. Shunday bo‘lsa-da, musulmonlar qarshi hujumga o‘tishdi. Bugungi kun rimliklarni chekinishi va o‘limi bilan kechdi. Oltinchi kun rimliklar qocha boshlashdi. Biroq Xolid ibn Valid ularni yo‘lini avvaldan to‘sib qo‘ygandi. Tor darada qolib ketgan rimliklar endi burchakka tiqilib qolgandi. Na bir qochish yo‘li bor, na bir najot. Shu tariqa oltinchi kuni musulmonlar rimliklar qo‘shinini tor-mor keltirdilar. Buyuk jang yakunlandi.

Bu g‘alabada Ajal batalyonining hissasi katta, albatta. Ular oxirgi vaziyatda qahramonlik ko‘rsatib, jang natijasini o‘zлari tomonga o‘zgartira oldilar. Misli ko‘rilmagan jasorat bilan dushman qo‘shinini kunpayakun qildilar. Yuzlab rimliklarni qilichdan o‘tkazib, qo‘shinning qolgan qismi yuragiga qo‘rquv soldilar. Mardlarcha qilgan ishlari quroldoshlarini o‘limdan asrab qoldi. Oz sonli qo‘shin bilan juda katta qo‘shinni mag‘lubiyatga uchratishga sabab bo‘ldilar. Bu jang yo‘lida o‘lgan minglab safdoshlari bekorga jon bermaganliklarini isbotladilar. Va yurtdoshlari qalbida, insonlar qalbida mangu jasorat ramzi bo‘lib qoldilar!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. *J. at-Turboniy. Islom ummatining yuz buyuk shaxsi. – Istanbul.: “FURKAN NESHRIYAT” 2020.*
2. *A.I. Akram. Xolid ibn al-Valid. Yengilmas qo‘mondon. – T.: Yangi asr avlodи. 2022.*
3. *Fatkh.uz*

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>Parmankulova, D. R., &amp; Ergasheva, N. D. (2024). PROBLEM AND THEMATIC CONTENT OF O.WILDE'S NOVEL "THE PORTRAIT OF DORIAN GRAY" AND ITS FIGURATIVE SYSTEM. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 4–11. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10776833">https://doi.org/10.5281/zenodo.10776833</a></b>
2	<b>Abdurazzaqov, O. A. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TARBIYA FANI O'QITISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'RNI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 12–17. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10776968">https://doi.org/10.5281/zenodo.10776968</a></b>
3	<b>Mirsoatova, S. T., &amp; Isomiddinov, M. (2024). FARG'ONA VODIysi TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASI TARIXSHUNOSLIGI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 18–24. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10782352">https://doi.org/10.5281/zenodo.10782352</a></b>
4	<b>Джавлиева, Г. Р., &amp; Туракулова, Р. О. кизи . (2024). ИСТОРИЯ НАШЕЙ НАЦИИ – НАСТОЯЩАЯ ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ ИДЕОЛОГИЯ. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 25–33. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10782381">https://doi.org/10.5281/zenodo.10782381</a></b>
5	<b>Иброхимова, Н. А. (2024). ГРАММАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД КАК МЕТОД ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 34–39. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10782471">https://doi.org/10.5281/zenodo.10782471</a></b>
6	<b>Azimova, I. X. qizi . (2024). O'RTA OSIYO ENEOLIT DAVRI YODGORLIKARINING O'RGANILISHIGA DOIR FIKR MULOHAZALAR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 40–45. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10782494">https://doi.org/10.5281/zenodo.10782494</a></b>

7

Акбарова, М. Ф. кизи . (2024). ЭКОНОМИКА БУДУЩЕГО: КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ ПРАВИЛА ИГРЫ.

INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 46–50. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782516>

8

Zakirova, S. A., & Yunusova, M. A. (2024). MALAYZIYA IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH YO'LLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 51–57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782665>

9

Abdullayeva, R. E. qizi ., & Jumayeva, G. O. (2024). O'SMIRLARDA YOLG'IZLIK HISSINING SHAKLLANISHI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 58–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782715>

10

Teshaboyev, A. Y. (2024). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KORREKSION TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 62–68.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10782724>

11

Abdullayeva, L., & Kayumova, G. N. (2024). PERCEPTION AND ITS PATHOLOGIES. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 69–72.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10782746>

12

Karayeva, Y. X. (2024). EGOISTIK XULQ-ATVORNING MOTIVATSION ASOSLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 73–77.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10782785>

13

Madrimov, O. J. o'g'li . (2024). QADIMGI XORAZMDA SHAHARSOZLIKNING PAYDO BO'LISHI, O'RGANILISHI VA REKONSTRUKSIYASI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(1), 78–82.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10782898>

14

**Qorjovov, B. (2024). HOZIRGI KUNDA MAKTAB O'QUVCHILARINI  
KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING AHAMIYATI.**

**INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING  
TECHNOLOGIES, 1(1), 83–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782973>**

15

**Koraboyev, M., & Soyibjonova, L. (2024). AJAL BATALYONI.**

**INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING  
TECHNOLOGIES, 1(1), 87–91. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783007>**